

ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA SHAXSNING SOMATIZMLAR VOSITASIDA SIFATLANISHI

Saypidinova Mexmonoy

Buxoro davlat universiteti magistranti

Somatizmlar – inson tana a'zolarining nomlarini o'zida aks ettiruvchi leksik birlik hisoblanadi. "Somatizm" termini tilshunoslikka ilk bor lingvist F. Bakk kiritgan. Biz og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham bu so'zlardan ko'p foydalanamiz. O'zbek tilshunosligida ham bu mavzuda bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilishi bilan bir qatorda o'zbek adabiyotshunosligida alohida mavzu sifatida o'rganilmagan. Shu o'rinda somatizmlarni badiiy nutqda o'rganilishiga nasr va nazmda birdek qalam tebratuvchi serqirra ijodkor Ulug'bek Hamdam she'rlari misolida mohiyatini ochishga e'tibor qaratdik.

O'zbek she'riyatida "yurak" somatizmidan eng ko'p qo'llanadi. Xususan Ulug'bek Hamdam ijodida ham lirik qahramon holatinini tasvirlashda bu so'zdan ko'p foydalanilgan. Shoiring "Tilak" she'rida:

Ko'zlarining ko'zimga tikib,

Yuragimdan hikmatlar so'rgil.

Bu o'rinda "yuragimdan" – chin qalbdan, chin dildan tushunchalarini ifoda etadi. Mazkur she'rning ikkinchi bandida:

Yuragingning siridan emas,

Dunyolarning kiridan voz kech!

"Yuragingning siri" birikmasi orqali ko'ngilda yashiringan o'y-fikrlarga ishora qilingan. Birinchi banddag'i "ko'z tikib" iborasidan foydalanilgan. Bu ibora intazorlik, kutish, yo'liga qaramoq ma'nolarini bildiradi. Misrada ko'z so'zidan ikki marta foydalanilgan. Aslida "ko'ziga ko'zini tikmoq" bo'lishi kerak edi, lekin shoir ko'zlarining ko'zimga tikib deb ishlatgan. Bu bilan suygan kishisini doim yonida his etishini bildirgan, ya'ni uni ko'z qarog'iday avaylab-asrashini ta'kidlagan.

Shoir "Iltijo" she'rning ikkinchi bandida:

Yuragimga oqdi-ku yana

Qismatimning zahar-zaqqumi, deya "yurak" so'zini oqmoq fe'li bilan qo'llash orqali ko'chma ma'no ifodalagan. Uchinchi bandda"

Qo'llaringni uzat, nihoyat,

Yo'llarimni ochgil, Xudoyim!

"Qo'llaringni uzat" so'zi bu o'rinda yordam bermoq, yordam olmoq tushunchalarini ifoda etadi.

"Orzu" she'rida shoir shunday yozadi:

Huvillagan yuragimga oqsa betinim,

Kuldirmasa ham yig'latib boshim egmasa.

Bu misralarda "yurak" huvillagan sifatdoshining, sifatlovchi aniqlovchi bilan qo'llash orqali tushkunlikka tushgan, yolg'iz inson holatiga ishora qilinmoqda. "Bosh

egmoq” iborasi esa ko’nmoq, taslim bo’lmoq, taqdirga ko’nmoq ma’nolarini ifodalagan. “Ichingdaman” she’rida:

Boshimda quyunday aylanar har o’y,
Emdi qay dovonning ichidaman men?..

O’y, xayol, tasavvur kabilar “miya” funksiyai bilan bog’liq. Ma’lumki, xalq tilida sinekdo’xa asosida “bosh” so’zi bilan ataladi. Masalan, “boshing bormi?”, “boshing ishlaydimi?” bu misrada ham miya tushunchasi poetik nuqtayi nazardan bosh so’zi bilan ifodalangan.

“Vatan” she’rida:

Yurtin qancha maqtaganlar bor,
Bilib-bilmay yoqlaganlar bor,
Til uchida madhini aytib,
Shirin jonin saqlaganlar bor.

“Til uchida gapirmoq” iborasi orqali soxtalik, nosamimiylilik tushuniladi. Shoир bu iboradan foydalanib, Vatan madhini til uchida aytuvchilarga kinoya qilmoqda. Mazkur she’rning oltinchi misrasida:

Yurakdagi sirimsan, Vatan!
Sir saqlagan pirimsan, Vatan!

Vatanni yurakdagi sirga tenglashtirmoqda. O’z yuragini Vatan uchun manzil makon ekanini ta’kidlamoqda. Buni shoир:

Yuragimda yasharsan, Vatan!
misrasida ta’kidlamoqda.

“Men tikkan bayroq” she’rda she’rning yurakka oqib kelishini aytish orqali chin she’r yurakdan yozilishini ta’kidlaydi. Xuddi shu she’rda “Teshilar yo’lingda ko’zim” behuda misrani keltirib, mubolag’a san’atini qo’llagan. Shu orqali intazorlik mubolag’ali tarzda bo’rttirib aytilgan. Shu she’rda “bo’g’iz” so’zi ham qo’llanilgan: “Bo’g’ziga tig’ kelgan jondek jonsarak”. Bo’giz – “O’zbek tili izohli lug’ati”da ko’pincha hayvonga ishlatilgan.

“Sonet” she’rida

Yuragimga birrov boq qiyo
deya ko’ngilni hisobga olmoq ma’nosini ifodalagan.

“She’r to’qiyman” she’rida:

Yuragimning yarmi og’rir,
Yarmida bayram, tantana...

Qizig’i shundaki bunda yuragimni yarmi deb ishlatgan.

“Onamga” she’rida:

Oppoq yuragingni yo’limga to’shagan
Qadim go’shada turarding hanuz...

“Oppoq yurak”deya pok ramzini ifodalab keladi. Soch ham tananing muhim a’zosi. Soch rangi yoshi, salomatligidan xabar beradi. Oppoq soch keksalik, nuroniylik belgisidir:

Sochlaring esa oppoq,

Xuddi yuragingdek oppoq edi ular –
Yo'l yurib momataloq bo'lgan oyoqlarimni,
Tiriklik g'ubori qo'ngan yonoqlarimni,
Tiriklik ishqisi qon qilgan yuraklarimni
Artib olish uchun boshingda tutib turgan sochiq edi ular!..

Mazkur misralarda soch, yurak, qon, bosh, oyoq, yonoq kabi somatizmlar qo'llangan. Aniqrog'i keltrilgan somatizmlardan foydalanib, tirikchilik tashvishi bilan yurgan inson holati tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotda somatizmlarni qo'llash orqali inson ruhiyatida kechadigan holatlarni, his-tuyg'ularni, xatti-harakatlarni anglatishga xizmat qilishi bilan alohida o'rinn tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hamdamov Ulug'bek. "Eski dunyo va yangi men". "Yangi asr avlodi", 2018-yil
2. Alimova X.Z. Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantic tasnifi. – Toshkent, 2005.
3. Вакк Ф. О. О соматической фразеологии эстонского языка// Вопросы фразеологии и составления фразологических словарей. – Баку. 1968.
4. Gadoyeva M. I. Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi. Buxoro – 2022.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jidli. Tuzatilgan ikkinchi nashri, - Toshkent: O'zbekiston, 2020